

**ODIL SUDLOVNING ASOSI — BU MALAKALI, MUSTAQIL VA VIJDONLI
SUDYALARDIR.**

**Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va qiyosiy huqushunoslik
fakulteti tyutori**

Abdurazzakov Ixtiyor

Demokratik jamiyatda sud hokimiyati eng muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. U fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishi, qonun ustuvorligini ta'minlashi kerak. Shu bois, sud tizimida faoliyat yurituvchi sudyalarning halolligi, malakasi va mustaqilligi – adolatli sudlovning kafolatidir.

O‘zbekiston Respublikasida sudyalarni tayyorlash, ularning kasbiy va axloqiy sifati yuqori bo‘lishi uchun bir qator huquqiy asoslar yaratilgan va ularni muntazam ravishda takomillashtirish yo‘lida izchil ishlar olib borilmoqda. Alohida ta'kinlash kerakki, demokratik huquqiy davlatning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan sud-huquq tizimini chuqur isloh etish va inson huquqlarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanib, uning qonunchilik asoslari ham Konstitutsiyamiz tamoyillari va qoidalari asosida tubdan qayta ko‘rib chiqilib, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsipi, insonparvarlik g‘oyalariga tayangan holda ishlab chiqildi.

Shu asosda, 2025-yil 21-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning “Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 141-son Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmon Sudyalar oliy maktabi negizida “Odil sudlov akademiyasi” ni tashkil etishni ko‘zda tutadi. Akademiya Sudyalar oliy kengashi huzurida yuridik maqomga ega bo‘lgan ixtisoslashtirilgan davlat muassasasi sifatida faoliyat yuritadi va prezidenti tomonidan tayinlanadigan rektor tomonidan boshqariladi.

Joriy yil 1-oktabrdan boshlab sudyalik lavozimlariga nomzodlar davlat granti asosida olti oylik kasbiy qayta tayyorlash kurslarida o‘qitiladi. Ushbu kurslar “nazariya-amaliyot-imitatsiya” tamoyiliga asoslangan bo‘lib, nazariy ta’limni huquqni muhofaza qilish organlari, advokatura va sud-ekspertiza muassasalaridagi amaliy tajriba bilan uyg‘unlashtiradi.

Akademiya amaldagi sudyalari va sud apparati xodimlari uchun majburiy malaka oshirish dasturlari joriy etiladi:

1. tayinlov muddati besh yil bo‘lgan sudyalari har ikki yilda ikki haftalik; o‘n yillik sudyalari har uch yilda bir marta;
2. Oliy sud sudyalari va sud rahbarlari har uch yilda kamida bir haftalik kurslarda o‘qitiladi.
3. Samaradorlik ko‘rsatkichlari past bo‘lgan sudyalari navbatdan tashqari o‘qitiladi.

Farmon bilan Odil sudlov akademiyasining kasbiy qayta tayyorlash kurslariga qabul tartiblari belgilangan bo‘lib, psixologik, chet tillari va sud ixtisosligidan test sinovlaridan o‘tkazish hamda yozma imtihon va yakka tartibdagi suhbatdan iborat tanlov orqali amalga oshiriladi.

Farmonning yana bir ahamiyati shundaki, unga muvofiq, akademiya qabul qilishda nomzodlarning muayyan toifalariga respublikaning boshqa oliy ta‘lim tashkilotlariga kirish uchun qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar tatbiq etilmaydi.

Rahbarlik lavozimlariga zaxirada bo‘lgan sudyalari uchun ikki oylik maxsus kurslar tashkil etiladi. Ushbu kurslarni muvaffaqiyatli tugatish rahbarlik lavozimlariga tayinlashning majburiy shartiga aylanadi.

Akademiya 2026-2027 o‘quv yilidan “Sud faoliyati” mutaxassisligi bo‘yicha magistratura dasturi asosida o‘qitish tashkil etiladi.

Xulosa qilib aytganda, odil sudlovning asosi — bu malakali, mustaqil va vijdonli sudyalardir. Ularni tayyorlash, kasbiy va axloqiy sifatlarini rivojlantirish, faoliyatiga nisbatan qat’iy talablar qo‘yish orqali fuqarolarning huquqlarini samarali himoya qilish mumkin. “Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon O‘zbekiston Respublikasida ushbu yo‘nalishda yaratilgan eng muhim huquqiy asoslardan biri bo‘lishi va sudyalari korpusini mustahkamlash, sud hokimiyatining obro‘sin oshirish, eng asosiysi — adolatni qaror toptirishga xizmat qiladi.